# “Visa Kapitalbank virtual kartasi bilan to‘lang – sovrinlar yutib oling!” promo-aksiyasida ishtirok etish bo‘yicha

# OMMAVIY OFERTA

***“Kapitalbank virtual kartasi bilan to‘lang – sovrinlarni yutib oling!”*** aksiyasida ishtirok etish bo‘yicha ushbu Ommaviy oferta (keyingi o‘rinlarda – “Oferta”) Ustav asosida ish yurituvchi Boshqaruv Raisi K. L. Mayevskiy timsolida “Kapitalbank” ATB (keyingi o‘rinlarda – Bank/“Tashkilotchi”) tomonidan tashkil etilgan va o‘tkazilayotgan ***“Kapitalbank virtual kartasi bilan to‘lang – sovrinlarni yutib oling!”*** aksiyasini (keyingi o‘rinlarda – “Aksiya”) o‘tkazish tartibi, shartlari, joyi va muddatlarini belgilaydi. Aksiyaning maqsadi Bank tomonidan chiqarilgan mahsulot – virtual Visa kartalarini ommalashtirish hamda ular orqali naqd pulsiz to‘lovlarni rag‘batlantirishdan iborat.

Ofertani akseptlash uning shartlarini to‘liq va so‘zsiz qabul qilishni anglatadi. Ofertaning amaldagi tahriri Internet tarmog‘idagi www.kapitalbank.uz manzili (keyingi o‘rinlarda – “Sayt”) hamda bankning Mobil ilovasida (keyingi o‘rinlarda – “Ilova”) joylashtirilgan va tanishib chiqish uchun ochiqdir.

## 1. Oferta predmeti

1.1. Ushbu oferta (keyingi o‘rinlarda – «Oferta») shartlarining qabul qilinishi (akseptlanishi) deb, Ishtirokchi tomonidan Ofertaning 3-bo‘limida belgilangan tartibda «Kapitalbank virtual kartasi bilan to‘lang – sovrinlar yutib oling!» promo-aksiyasida (keyingi o‘rinlarda – «Aksiya») ishtirok etishga qaratilgan harakatlarning amalga oshirilishi hisoblanadi. Ofertaning amaldagi tahriri Internet tarmog‘ida www.kapitalbank.uz manzilida joylashtirilgan va tanishib chiqish uchun ochiq.

1.2. Aksiya Tashkilotchisi: «Kapitalbank» ATB (keyingi o‘rinlarda – «Tashkilotchi»).

1.3. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladi.

1.4. Aksiya lotereya hisoblanmaydi, unda ishtirok etish uchun to‘lov talab qilinmaydi hamda u Kapitalbank virtual kartalarini ochish va ulardan foydalanishni, shuningdek ularni Apple Pay xizmatiga ulashni rag‘batlantirishga qaratilgan.

1.5. Bank va Aksiya Ishtirokchilari o‘rtasida yuzaga keladigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar muzokaralar o‘tkazish yo‘li bilan hal etilishi lozim. Kelishuvga erishish imkoni bo‘lmagan taqdirda, nizo O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Bank joylashgan yerdagi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudda ko‘rib chiqilishi kerak.

1.6. Mazkur Ofertaning akseptlanishi Ishtirokchi tomonidan Ofertaning barcha shartlari hech qanday istisnolarsiz va/yoki cheklovlarsiz to‘liq hamda so‘zsiz qabul qilinganligini anglatadi va yozma bitim tuzishga tenglashtiriladi.

1.6.1. Mazkur Ofertani akseptlar ekan, Ishtirokchi quyidagilarni tasdiqlagan hisoblanadi:

- ushbu Oferta shartlari bilan to‘liq va batafsil tanishib chiqqanligini, ularga roziligini va ularga rioya qilish majburiyatini olishini;

- tuzilayotgan Oferta mazmuni va u bilan bog‘liq holda Ishtirokchi uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan huquqiy oqibatlar unga tushunarli ekanligini;

- huquq layoqatiga/muomala layoqatiga ega ekanligini hamda Tashkilotchi bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishish uchun o‘zining qonuniy huquqini tasdiqlashini.

1.7. Tashkilotchi aksiya haqida qo‘shimcha ma’lumotlarni e’lon qilish

va aksiya shartlarini bir tomonlama tartibda o‘zgartirish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

1.8. Ofertani akseptlar ekan, Ishtirokchi yanglishish, aldanish, zo‘ravonlik yoki tahdid ta’siri ostida bo‘lmagan holda, majburlovsiz, ixtiyoriy ravishda harakat qilayotganligini tasdiqlaydi.

1.9. Tashkilotchi uchinchi shaxslarning tovarlari, xizmatlari va faoliyatini reklama qilmaydi hamda, Ofertani akseptlar ekan, Ishtirokchi Tashkilotchi taqdim etiladigan sovrinlar sifati uchun javobgar emasligini tasdiqlaydi.

## 2. Aksiyani o‘tkazish muddatlari

2.1. Aksiya **2026-yil 26-oktyabrdan 2027-yil 30-yanvargacha (shu kuni ham)** bo‘lgan davrda o‘tkaziladi.

2.2. Sovrinlar o‘yini Tashkilotchi tomonidan Aksiya o‘tkaziladigan butun muddat davomida har ikki haftada quyidagi jadvalga muvofiq o‘tkaziladi:

1-bosqich: 2026-yil 26-oktyabrdan 15-noyabrgacha;

2-bosqich: 2026-yil 16-noyabrdan 30-noyabrgacha;

3-bosqich: 2026-yil 1-dekabrdan 15-dekabrgacha;

4-bosqich: 2026-yil 16-dekabrdan 31-dekabrgacha;

5-bosqich: 2027-yil 1-yanvardan 2027-yil 15-yanvargacha;

6- (yakuniy) bosqich: 2027-yil 16-yanvardan 30-yanvargacha.

2.3. Har bir bosqich yakunlari bo‘yicha natijalarni sarhisob qilish Tashkilotchi tomonidan mazkur bosqich tugaganidan so‘ng 5 (besh) ish kuni ichida amalga oshiriladi.

3. Ishtirok etish shartlari

3.1. Aksiyada 18 yoshga to‘lgan, Aksiyani o‘tkazish davrida quyida keltirilgan barcha shartlarni bajargan, muomalaga layoqatli jismoniy shaxslar (O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari) (keyingi o‘rinlarda – Ishtirokchi) ishtirok etishlari mumkin.

3.2. Aksiyada ishtirok etish uchun Ishtirokchi Ofertaning 2.1-bandida ko‘rsatilgan Aksiya o‘tkazilish davrida quyidagi amallarni ketma-ket bajarishi lozim:

- «Kapitalbank. Online» mobil ilovasi orqali Visa Kapitalbank virtual kartasini (keyingi o‘rinlarda – «virtual karta») ochish;

- ochilgan virtual kartani Apple Pay kontaktsiz to‘lov xizmatiga ulash;

- ushbu Virtual kartadan foydalangan holda Apple Pay kontaktsiz to‘lov xizmati orqali kamida 150 000 (bir yuz ellik ming) so‘m yoki 12 (o‘n ikki) AQSH dollari, yoxud 12 (o‘n ikki) yevro miqdorida xaridni amalga oshirish.

3.3. Aksiyaning tegishli bosqichini o‘tkazish davrida Ofertaning 3.2-bandida ko‘rsatilgan barcha shartlarning bajarilishi jismoniy shaxsni avtomatik ravishda Aksiya Ishtirokchisiga aylantiradi va unga mazkur bosqich sovrinlari o‘yinida qatnashish huquqini beradi.

3.4. 3.2-band shartlariga javob beradigan har bir xarid u amalga oshirilgan bosqich doirasidagi yutuqli o‘yinda ishtirok etish uchun bitta imkoniyat sifatida hisobga olinadi. Imkoniyatlar sonini oshirish uchun xaridlar miqdori cheklanmagan.

3.5. «Kapitalbank» ATB xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari Aksiyada ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

3.6. Ofertaning akseptlanishi (qabul qilinishi) Ishtirokchi Ofertada bayon etilgan Aksiyani o‘tkazish shartlari bilan to‘liq tanishib chiqqanligini va ularga so‘zsiz roziligini bildirganini anglatadi.

## 4. Sovrin jamg‘armasi

4.1. Aksiyaning sovrin jamg‘armasi Tashkilotchi mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi va quyidagi sovrinlarni o‘z ichiga oladi:

6 (olti) dona HP OmniBook 3 noutbuki;

6 (olti) dona Sony PlayStation 5 Slim o‘yin pristavkasi.

4.2. Ofertaning 2.2-bandida ko‘rsatilgan Aksiyaning 6 (olti) ta bosqichidan har biri doirasida, tegishli bosqich davomida ishtirok etish shartlarini bajargan Ishtirokchilar o‘rtasida 1 (bir) dona HP OmniBook 3 noutbuki va 1 (bir) dona Sony PlayStation 5 Slim o‘yin pristavkasi o‘ynaladi.

4.3. Sovrinlar pul ekvivalentiga almashtirilmaydi va qaytarib olinmaydi.

4.4. Bunda, yutuqli o‘yin g‘olibi Ofertaning ushbu 4-bo‘limida nazarda tutilgan sovrin jamg‘armasidan 1 (bitta) sovringa da’vogarlik qilishga haqli.

## 5. G‘oliblarni aniqlash va sovrinlarni topshirish tartibi

5.1. Har bir bosqich g‘oliblari, shuningdek, har bir sovrin uchun kamida 2 (ikki) nafar zaxira ishtirokchi tegishli bosqichda ishtirok etish shartlarini bajargan Ishtirokchilar orasidan tasodifiy sonlar generatoridan foydalangan holda tasodifiy tanlash usuli bilan aniqlanadi.

5.1.1. Sovrinlar yutuqli o‘yini quyidagi tartibda o‘tkaziladi:

- Oferta shartlariga javob beradigan har bir to‘lov operatsiyasiga noyob identifikatsiya raqami beriladi;

- tasodifiy sonlar generatori yordamida identifikatsiya raqamlarining umumiy bazasidan kamida 2 ta yutuqli raqam g‘olibi tanlab olinadi;

- Yutuqli raqamlar bilan operatsiyalarni amalga oshirgan Ishtirokchilar g‘olib deb topiladi va sovrin olish huquqini qo‘lga kiritadi;

- agar bitta Ishtirokchi bittadan ortiq sovrin yutib olgan bo‘lsa, qo‘shimcha sovrinlar qolgan Ishtirokchilar o‘rtasida qaytadan o‘ynaladi.

5.1.2. Sovrinlar yutuqli o‘yinlari Tashkilotchining ijtimoiy tarmoqlardagi (Instagram) rasmiy sahifalarida yoki messenjerdagi (Telegram) rasmiy kanalida jonli efir rejimida o‘tkaziladi, yutuqli o‘yinlarni o‘tkazish sanalari o‘zgargan taqdirda, tashkilotchi bu haqda efir

boshlanishidan oldin www.kapitalbank.uz saytida yoki ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida e’lon qiladi.

5.2. G‘oliblar haqidagi ma’lumotlar “Kapitalbank” ATBning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida va bankning www.kapitalbank.uz rasmiy saytida tegishli bosqich yakunlari chiqarilgan sanadan boshlab 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay e’lon qilinadi.

5.3. Tashkilotchi sovrinni topshirish uchun natijalar e’lon qilingan sanadan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida g‘oliblar bilan bog‘lanadi. Sovrinlar Tashkilotchi ofislaridan birining hududida topshiriladi.

5.4. Sovrinni olish uchun G‘olib Tashkilotchining aloqa markazi orqali yoki boshqa usulda xabardor qilinganidan keyin, Tashkilotchining filiallaridan birida shaxsini tasdiqlash (identifikatsiyalash) uchun Tashkilotchiga shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishi va sovrinni olganidan so‘ng qabul qilish-topshirish dalolatnomasini imzolashi shart. G‘olib shaxsni tasdiqlash jarayonidan o‘tishni rad etgan taqdirda, Tashkilotchi sovrinni berishni rad etishga haqli, bunda Tashkilotchi topshirilmagan sovrinni keyingi yutuqli o‘yinda o‘ynash huquqiga ega.

5.5. Agar g‘oliblardan biri har qanday sababga ko‘ra sovrinni olishdan bosh tortsa, uni ololmasa yoki Tashkilotchidan xabarnoma olgandan so‘ng 5 (besh) ish kuni ichida aloqaga chiqmasa, sovrin navbat tartibiga ko‘ra zaxiradagi ishtirokchiga topshiriladi.

5.6. G‘olib Tashkilotchidan xabarnoma olgandan so‘ng 5 (besh) ish kuni ichida aloqaga chiqqan bo‘lishi sharti bilan, tegishli bosqich natijalari e’lon qilingan sanadan boshlab 1 (bir) kalendar oydan kechiktirmay sovrinni olish uchun murojaat qilishi mumkin.

5.7. Sovrin (sovrinlar) sohibiga aylangan Ishtirokchilar sovrinni pul ekvivalentiga almashtirishni, qo‘shimcha haq to‘lash yoki qiymatdagi farqni qaytarish sharti bilan sovrinni qimmatroq yoki arzonroq boshqa sovringa almashtirishni talab qilishga haqli emas.

5.8. G‘olib sovrinni olishdan bosh tortgan taqdirda, bunday sovrin talab qilib olinmagan deb hisoblanadi.

5.8.1. Bank va Hamkorlar talab qilib olinmagan sovrinlar yoki g‘oliblar olishdan bosh tortgan sovrinlardan o‘z xohishiga ko‘ra foydalanishga, shu jumladan boshqa Ishtirokchilar o‘rtasida o‘ynashga haqli.

5.9. Tashkilotchi obyektiv sabablar (texnik nosozliklar, fors-major holatlari va hokazo) mavjud bo‘lganda, ushbu Ofertaning amal qilishini chaqirib olish (to‘xtatib turish) holati yuz berishidan kamida 12 soat oldin Tashkilotchining www.kapitalbank.uz rasmiy saytida tegishli ma’lumotni joylashtirgan holda Aksiyani muddatidan oldin to‘xtatish huquqiga ega.

5.10. Tashkilotchi o‘zgartirishlar kiritilishidan kamida 5 kun oldin Tashkilotchining rasmiy axborot internet-resurslari orqali xabardor qilgan holda, Aksiya to‘g‘risida qo‘shimcha ma’lumotlarni e’lon qilish yoki Aksiya shartlariga bir tomonlama tartibda o‘zgartirishlar kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

5.11. Talab qilib olinmagan sovrinlar, shuningdek, g‘oliblar olishdan bosh tortgan sovrinlardan Bank o‘z xohishiga ko‘ra foydalanishi mumkin, shu jumladan ular:

- Aksiyaning boshqa Ishtirokchilari o‘rtasida o‘ynalishi;

- Aksiyaning keyingi bosqichlari sovrin jamg‘armasiga kiritilishi;

- Bankning boshqa marketing tadbirlarida foydalanilishi mumkin.

## 6. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

6.1. Ishtirokchi quyidagi majburiyatlarni oladi:

Oferta shartlariga rioya qilish;

o‘zi haqida ishonchli ma’lumotlarni taqdim etish.

6.2. Tashkilotchi quyidagi majburiyatlarni oladi:

Aksiyaning Ofertaga muvofiq o‘tkazilishini ta’minlash;

yutuqli o‘yin o‘tkazish jarayonining shaffofligini va sovrinlar o‘z vaqtida topshirilishini ta’minlash.

6.3. Tashkilotchi quyidagi huquqlarga ega:

rasmiy aloqa kanallari orqali ishtirokchilarni xabardor qilgan holda Aksiya shartlarini o‘zgartirish yoki to‘ldirish;

Aksiya shartlari buzilganligi aniqlangan taqdirda, hech qanday tovon (kompensatsiya) to‘lamasdan sovrinni berishni rad etish.

## 7. Aksiyani to‘xtatish yoki o‘zgartirish

7.1. Tashkilotchi obyektiv sabablar (texnik nosozliklar, fors-major holatlar va h.k.) mavjud bo‘lganda, tegishli ma’lumotlarni o‘zining https://www.kapitalbank.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirish orqali Aksiyani muddatidan oldin to‘xtatish yoki ushbu Oferta shartlariga o‘zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

7.2. O‘zgartirishlar, agar boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa, e’lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

## 8. Tomonlarning javobgarligi

8.1. Tashkilotchi o‘z nazoratidan tashqaridagi telekommunikatsiya tarmoqlari, pul o‘tkazmalari tizimlari va texnik vositalar ishidagi nosozliklar, shu jumladan Apple Pay xizmati ishidagi uzilishlar uchun javobgar emas.

8.2. Ishtirokchi taqdim etilayotgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va Ofertada belgilangan ishtirok etish shartlariga rioya etilishi uchun javobgardir.

8.3. Oferta shartlarining lozim darajada bajarilmasligi Tashkilotchining nazorati doirasidan tashqaridagi sabablar tufayli yuzaga kelgan bo‘lsa, Tashkilotchi buning uchun javobgar bo‘lmaydi.

## 9. Shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlashga rozilik

9.1. Aksiyada qatnashish orqali Ishtirokchi Aksiyada ishtirok etish, g‘oliblarni aniqlash, sovrinlarni topshirish va natijalar haqida xabardor qilish maqsadida Tashkilotchiga taqdim etilgan shaxsiy ma’lumotlarning qayta ishlanishiga rozilik bildiradi.

9.2. Shuningdek, Ishtirokchi aksiyani o‘tkazish bilan bog‘liq materiallarda, shu jumladan Internet tarmog‘ida reklama maqsadlarida o‘z ismi va tasviri (fotosurati)dan qo‘shimcha kelishuvsiz foydalanilishiga rozilik beradi.

## 10. Boshqa shartlar

10.1. Oferta bilan tartibga solinmagan barcha masalalar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi.

10.2. Oferta “Kapitalbank” ATBning rasmiy resurslariga joylashtirilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va Aksiya o‘tkazilish muddati tugagunga qadar amal qiladi.

10.3. Ofertada bevosita nazarda tutilmagan barcha holatlarda Tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

10.4. Ushbu Oferta o‘zbek tilida e’lon qilingan.

10.5. Aksiya haqida batafsil ma’lumotni bankning 1340 qisqa raqamli ishonch telefoni yoki (+998 71) 200-15-15 telefon raqami orqali ham olish mumkin.

10.6. Aksiyaning potensial va amaldagi Ishtirokchilarini rasmiy xabardor qilish Tashkilotchining tanloviga ko‘ra quyidagi aloqa kanallari orqali amalga oshiriladi:

- “Kapitalbank” ATBning rasmiy veb-sayti (www.kapitalbank.uz);

- Bankning ijtimoiy tarmoqlar va kross-platformali messenjerlardagi rasmiy sahifalari hamda guruhlari;

- Visa karta egalari uchun SMS-xabarlar, mobil ilovadagi push-bildirishnomalar va/yoki elektron pochta orqali yuboriladigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xabarnomalar.

10.7. Ushbu Ofertaning barcha Ilova va o‘zgartirishlarni o‘z ichiga olgan to‘liq matni Tashkilotchining www.kapitalbank.uz rasmiy saytidagi “Aksiyalar” bo‘limiga joylashtiriladi hamda barcha manfaatdor shaxslar tanishib chiqishi uchun ochiq bo‘lgan ommaviy hujjat hisoblanadi.

10.8. Aksiyada ishtirok etish shartlari, g‘oliblarni aniqlash tartibi, sovrinlarni olish tartibi va boshqa masalalar bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot olish uchun Ishtirokchilar:

- 1340 yagona raqami orqali Tashkilotchining Aloqa markaziga murojaat qilishlari;

- “Kapitalbank” ATBning istalgan filiali yoki bo‘limida maslahat olishlari;

- Tashkilotchining rasmiy saytidagi qayta aloqa shakli orqali savol yo‘llashlari mumkin.

10.9. Tashkilotchi tomonidan Aksiyani muddatidan oldin to‘xtatish, uni o‘tkazish muddatlarini uzaytirish yoki uning shartlariga jiddiy o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda, tegishli ma’lumotlar o‘zgarishlar kuchga kirishidan yoki Aksiya to‘xtatilishidan kamida 3 (uch) ish kuni oldin Tashkilotchining rasmiy saytidagi “Aksiyalar” bo‘limida e’lon qilinadi.

10.10. Tashkilotchi Ishtirokchilarning belgilangan tartibda e’lon qilingan Aksiya to‘g‘risidagi rasmiy ma’lumotlar bilan tanishmaganligi, shuningdek, uchinchi shaxslardan Aksiya haqida ishonchsiz ma’lumot olganligi uchun javobgar bo‘lmaydi.

## 11. TASHKILOTCHINING REKVIZITLARI

"Kapitalbank" ATB

Manzil: Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 7

STIR: 207127843

MFO: 01158

Tel.: +998 78 200-15-15 E-mail: info@kapitalbank.uz

O‘zR MBning 25.12.2021-yildagi 69-sonli litsenziyasi